

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SON SO‘Z TURKUMINI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA O‘QITISH**

*Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani*

*25-son umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

***Baturova Maxbuba Inatovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda son so‘z turkumini o‘qitishda zamonaviy metodlar asosida o‘qitilishi haqidagi fikrlar bayon qilingan. Ushbu maqolada qo‘llanilgan zamonaviy metodlar haqidagi nazariy ma’lumotlar berilmasdan, aynan son so‘z turkumining o‘qitishga qaratilganligi bilan dolzarbdir.

**Kalit so‘zlar:** dastur, nazariyasiz, charxpalak, muammo, vaziyat, yo‘nalish, imlosi, grammatik, lugat, zahirasi, metodik.

O‘zbek tilining so‘zlarga boyligi boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darsliklarida qo‘llangan holatidan ham ma’lum. Son so‘z turkumi ustida olib borilgan lug‘aviy ishlar o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish bilan birga, lug‘at zahirasi boyitishga xizmat qiladi. Son ustida ishlash dastur talabiga ko‘ra 1-sinfdan boshlansa ham, uni o‘rganish jarayoni, metodik jihatdan 4 bosqichga bo‘linadi. Son boshlang‘ich ta’limda elementar nazariy tushunchalar asosida amaliy o‘rganiladi. Lekin 1-bosqichni to‘liq ma’noda sonni amaliy o‘rganish bosqichi deb nomlaymiz. Chunki bu bosqichda umuman nazariyasiz son ustida ishlanadi va bu 1-sinfning savod o‘rgatish va 1-sinfning 2-yarmiga to‘g‘ri keladi. Boshlang‘ich sinflarda Son so‘z turkumini o‘qitishda «Charxpalak», «Aqliy hujum», «Muammoli vaziyat», «Zig-Zag», «FSMU» metodlarini qo‘llashni to‘g‘ri deb bildim. «FSMU» metodi asosida son tushunchasini to‘g‘ri shakllantirish ustida ishlash jarayoni 3-sinf o‘quvchilariga mosligi bilan xarakterlidir.

Boshlang'ich ta'limda son uch yo'nalishda o'rganiladi:

1. Sonlarning talaffuzi va ma'nosi ustida ishlash.
2. Sonning grammatik shakllari ustida ishlash.
3. Sonlarning imlosi ustida ishlash.

Bu metodlar son yuzasidan beriladigan tushunchalarning mohiyatiga, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga bog'liq holda tanlanishi ham muhimdir.

Son so'z turkumining o'qitish jarayonidagi uch yo'nalish asosida har bir guruhga quyidagi muammo orqali mavzu bo'yicha fikrlari so'raladi. Birinchi guruhga Sonlarning talaffuzi va ma'nosi ustida ishlash qanday tartibda bo'lish kerakligi so'raladi. Ikkinchi guruhga Sonning grammatik shakllari ustida ishlash haqidagi fikrlari so'rab o'tiladi. Uchinchi guruhga esa Sonlarning imlosi ustida ishlash haqidagi fikrlari so'raladi. Har bir fikrlar o'qituvchi boshchiligida rag'batlantirib boriladi. Ikkinchi bosqichda shu metod bo'yicha sabab keltiriladi. Sabab jarayonida o'qituvchi kichik guruhlar uchun bir xil muammo taqdim qiladi. Kishilar bir-biri bilan muloqot qilganida soating nechchi bo'ldi? deb so'rashadi.

Sonning sanoq va tartib ma'nolarini bildirishini; Son nechta?, qancha?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lishini; Son otga bog'lanib kelishini; Son gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishini; Sonlarni imlo jihatdan to'g'ri yozishni;

Og'zaki va yozma nutqda sonlardan to'g'ri va o'rinli foydalana olishni; Sonlarga shakldosh so'zlar topishni; Matndagi sonlarni boshqa miqdor bildiruvchi so'zlar bilan almashtirishni bilishga e'tibor qaratiladi. Umumlashtirish ba'zan o'quvchilar tomonidan, ba'zan o'qituvchi tomonidan shakllantiriladi. Uzoq muddatli tahlil va tushuntirishdan so'ng xulosani ko'pincha o'quvchilar shakllantiradi, yasaydi. Bu mavzuda o'qituvchi quyidagicha umumlashtiradi: «Nechta?, qancha? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar sanoqni, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar tartibni bildiradi».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K. va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: “Nosir” nashriyoti. 2009y.
2. G‘afforova T. G‘ulomova X. 1-sinfda ona tili darslari. Toshkent: Taffakur, 2007y.
3. G‘ulomova X. Yo‘ldosheva Sh. Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004y
4. G‘ulomov A. Qodirov B. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi
5. Kakharova, N. N. (2022). Verb Prefixes in Russian Language. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(8), 170-174.